

MILLIY TARBIYA ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna

Qo‘qon Universiteti Ta‘lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy tarbiya asosida bo‘ljak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish masalasi keng yoritilgan. Milliy g‘oya va milliy tarbiyaning o‘qituvchi shaxsiyatini shakllantirishdagi o‘rni, ularning kasbiy kompetensiyani rivojlantirishdagi ta‘siri haqida chuqur tahlil yuritadi. Jumladan, insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik tamoyillari asosida ta‘lim-tarbiya jarayonida yangi yondashuvlarni joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik metodlar uyg‘unligining samaradorligi IMR (Ilmiy-Milliy Refleksiya) metodining qo‘llanilishi orqali ko‘rsatiladi. Shuningdek, maqolada “Topag‘onlar o‘yini” kabi ijodiy metodlar orqali o‘quvchilarda jamoaviylik, mantiqiy fikrlash va estetik didni shakllantirishga xizmat qiluvchi faoliyatlar haqida ma‘lumot beriladi. Xulosa sifatida, milliy tarbiya va zamonaviy ta‘lim metodlari integratsiyasi orqali zamon talablari darajasida fikrlaydigan, barkamol shaxslarni tarbiyalovchi pedagoglarni tayyorlashning dolzarbligi ta‘kidlangan.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya, pedagogik mahorat, milliy g‘oya, boshlang‘ich ta‘lim, insonparvarlik, ezgulik, bunyodkorlik, o‘qituvchi shaxsiyati, kasbiy kompetensiya, ta‘lim islohotlari

Аннотация: В статье широко освещается проблема формирования педагогического мастерства будущих учителей начальных классов на основе национального образования. Проводит глубокий анализ роли национальной идеи и национального воспитания в формировании личности учителя и их влияния на развитие профессиональной компетентности. В частности, обосновывается необходимость внедрения новых подходов в образовательный процесс, основанных на принципах гуманности, добра и творчества. Эффективность сочетания национальных ценностей и современных педагогических методов демонстрируется на примере использования метода ИМР (Научно-национальной рефлексии). В статье также представлена информация о мероприятиях, способствующих развитию у учащихся командной работы, логического мышления и эстетического вкуса с помощью творческих методов, таких как «Игра в тапочки». В заключение подчеркивается актуальность подготовки педагогов, мыслящих в соответствии с

требованиями времени и воспитывающих всесторонне развитую личность путем интеграции отечественного образования и современных методов обучения.

Ключевые слова: национальное образование, педагогическое мастерство, национальная идея, начальное образование, гуманность, доброта, творчество, личность учителя, профессиональная компетентность, образовательные реформы.

Abstract: This article extensively covers the issue of developing the pedagogical skills of future primary school teachers based on national education. It provides an in-depth analysis of the role of the national idea and national education in the formation of the teacher's personality, their impact on the development of professional competence. In particular, the need to introduce new approaches to the educational process based on the principles of humanity, goodness and creativity is substantiated. The effectiveness of the combination of national values and modern pedagogical methods is demonstrated through the use of the IMR (Scientific-National Reflection) method. The article also provides information about activities that serve to form teamwork, logical thinking and aesthetic taste in students through creative methods such as the "Game of Topag'onlar". In conclusion, the relevance of training educators who think at the level of modern requirements and educate well-rounded individuals through the integration of national education and modern educational methods is emphasized.

Keywords: national education, pedagogical skills, national idea, primary education, humanity, goodness, creativity, teacher personality, professional competence, educational reforms

TARBIYA — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga karatilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chortadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiya siz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarish.i va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televidenie va b.ni ham o'z ichiga

oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiyma'naviy sifatleri qaror topishi ham tezlashadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish. to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intilishlar tizimiga ega bo'lishi lozim.³⁷

Asrlar davomida bizning ota-bobolarimizdan ardoqlanib kelingan milliy qadriyatlar tayangan holda shakllangan milliy tarbiya tizmi bor bu o'z navbatida bizning mustaqillik yillaridan oldin yani Amir Temur va Temuriylar undan so'ng esa Xonliklar davrida shakllanib o'zining yuqori cho'qqisiga erishgan. Milliy tarbiyaning mazmuni mohiyatini tushunish yetishda biz asosan tarixga yani o'zbek xalqining tarixiga tayanamiz. Bundan kelib chiqadiki, milliy tarbiyaning asl mohiyatni o'zbek xalqining tarixini to'g'ri va haqqoniy yoritish lozim.³⁸

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohotlar, xususan, boshlang'ich ta'lim tizimining zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirilishi milliy tarbiyaning o'rnini yanada muhimlashtirmoqda. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirishda milliy g'oya va tarbiya negizida yondashish — yosh avlodni barkamol inson etib voyaga yetkazishning eng samarali yo'llaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasida ta'kidlanganidek, milliy g'oya — bu biror millat hayotiga mazmun baxsh etadigan va uni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir. U millatning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida

³⁷ «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти ТОШКЕНТ, 114-bet

³⁸ A'zamov Adhamjon Axrorjon o'g'li Qo'qon davlat pedagogika instituti tarix fakulteti Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari huquq ta'lim yo'nalishi 201- guruh talabasi <https://doi.org/10.5281/zenodo.10777619>

mujassam etgan holda, uning tub ~~manfaatlari~~ va maqsadlarini ifodalaydi.³⁹ Aynan shu yondashuv asosida o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan milliy g'oyasi va tajribaga boy milliy tarbiya tizimi mavjud. Bu tajriba zamirida xalqimizning qadimiy urf-odatlarini, ma'naviy merosi va barkamol avlodni tarbiyalashga doir qarashlari mujassamdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil yanvar oyida mamlakatimizning quyidagi g'oyalarga asoslangan yangi milliy g'oyasini e'lon qildi:

- 1) insonparvarlik;
- 2) ezgulik;
- 3) bunyodkorlik.⁴⁰

Bu mutlaqo yangi asosdagi milliy g'oya bo'lib, uning ma'nosini quyidagilar tashkil etadi: insonparvarlik insonni qadrlash, uning sha'ni, g'ururi va huquqlarini ro'yobga chiqarish, insonga munosib yashash, turmush sharoiti yaratib berish va davlat hamda jamiyatning faoliyatini inson omili asosiga qurish; ezgulik insonda va jamiyatda eng yaxshi hamda ideal g'oyalarni tarkib toptirish, inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish, "Avesto"da ta'kidlangani-dek, inson va jamiyatda ezgu niyat, ezgu fikr hamda ezgu amalni tarkib toptirish;

D.I.Feldshteyn fikriga ko'ra, ontogenezda shaxs ijtimoiy yetuklikning turli bosqichlarini bosib o'tish jarayonida rivojlanadi. Uning shakllanishida ijtimoiy ahamiyat kasb etgan faoliyat bosh omil bo'lib hisoblanadi. Demak, shaxs faol va ongli mavjudot sifatida belgilanadi. U faqat ijtimoiy munosabatlar obyekti emas, balki subyekti hamdir.

⁴¹

O'qituvchi - O'zbekistonning porloq kelajgini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, o'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasidagi obro e'tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart. O'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga do'st bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olish yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zinir munosib hissasini qo'shishi zarur. Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham

³⁹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 5-jild. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003-yil. — 666-bet.

⁴⁰ Mirziyoyev Sh.M. *Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir.* – Toshkent: "Tasvir" nashriyoti, 2021. 7-bet

⁴¹ N.N-AZIZXOMAYEVA Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, 160 b.

oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat vuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sher ziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husaj Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususida qimmatli ma'lumotlarni o'z asarlarida qizg'in bayon qilishgan.⁴²

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim - tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy - ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvomi va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zahirida takomillashib boradi. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bo'lishi lozim:⁴³ Demak, milliy tarbiya orqali, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishda o'ziga xos usul va metodlardan foydalanish yaxshi samara berib ularni ijodkorlik, kreativ fikrlash, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Quyida bir nechta metodlardan namunalar ketiramiz.

IMR metodi o'tkazilish bosqichlar (Ilmiy-Milliy Refleksiya)

1-bosqich; Bu metodni o'tkazishdan maqsad, zamonaviy pedagogik metod yoki tamoyilni tanlash va chuqur tahlil qilishdan iborat

Bo'lajak o'qituvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlardan birini tanlaydi (masalan: STEAM, CLIL, Differensial ta'lim, Flipped Learning, Problem-based learning).

Shu metodni ilmiy manbalar asosida o'rganadi: mohiyati, afzalligi, kamchiligi, qo'llanish sohalari.

⁴² Xoliqov A. A. X-72 Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; 0 6zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -7-bet.

⁴³ Xoliqov A. A. X-72 Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; 0 6zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -12-bet

Natijada talabalar zamonaviy metodni to'liq tushunib oladi.

2-bosqich: Milliy qadriyatlar bilan qiyoslash

Metodning o'tkazishdan maqsad zamonaviy yondashuvni milliy tarbiya elementlari bilan solishtirish.

Tanlangan metodning mohiyati o'zbek xalq pedagogikasi elementlari bilan taqqoslanadi.

Talaba milliy tarbiyada mavjud bo'lgan o'xshash g'oya yoki qadriyatni topadi (ertak, maqol, udum, tarixiy shaxs tajribasi).

3-bosqich: Refleksiya (O'z-o'zini tahlil qilish)

Metodning o'tkazishdan maqsad; Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z ustida fikr yuritishi va o'zini baholashi.

Talaba yozma yoki og'zaki ravishda quyidagi savollarga javob beradi:

Ushbu metod orqali nimani angladim?

Milliy qadriyatlar menga qanday ilhom berdi?

Shu yondashuvni darsimda qanday qo'llayman?

O'quvchilarga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatadi?

Refleksiya shakllari: Jurnal to'ldirish, og'zaki taqdimot, videoblog, eslatmalar.

Milliy tarbiya – bu faqat an'anaviy urf-odatlar tizimi emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan chuqur ijtimoiy, ma'naviy va madaniy asosga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. Aynan shu jihat pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini shakllantirishda muhim manba sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, milliy tarbiya tamoyillari asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish — zamonaviy ta'limda muhim va dolzarb yo'nalishlardan biridir. O'zbek xalqining boy ma'naviy

merosi, qadriyatlari va an'analariga tayangan holda, yosh avlodni tarbiyalashga qodir bo'lgan pedagoglar shakllantirish bugungi islohotlarning asosiy maqsadiga aylangan. Milliy g'oya negizida o'qituvchining shaxsiyati, kasbiy kompetensiyasi va tarbiyaviy salohiyatini rivojlantirish — nafaqat ta'lim sifatini, balki jamiyat ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim omildir. Shu bois, milliy tarbiya va zamonaviy pedagogik metodlarning uyg'unligi asosida faoliyat yuritadigan pedagog kadrlar — kelajak taraqqiyotining mustahkam poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. – Toshkent: “Tasvir” nashriyoti, 2021. 7-bet
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 5-jild. Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003-yil. — 666-bet.
3. Xoliqov A. A. X-72 Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; 0 6zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -7-bet.
4. N.N-AZIZXOMAYEVA Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. 0 'quv qo'llanma. -T.: 0 'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, 160 b.
5. Jabborova. O'.M. va Z.A. Umarovanning “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi: innovatsiya va integratsiyasi”. Darslik, 53-bet
6. Zulfiya, S. (2024). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 188-193.
7. Sanginova, G. (2024). BOLALARDA MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *University Research Base*, 116-119.
8. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/7294>
9. <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/39201>
8. <https://oriens.uz/journal/article/kouching-texnologiyasi-pedagogik-kompetentsiyani-oshirish-shakli-sifatida/>